

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI BUXORO DAVLAT
UNIVERSITETINING PEDAGOGIKA INSTITUTI MAKTABGACHA
TA‘LIM VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM NAZARIYASI VA
METODIKASI KAFEDRALARI**

**“BOSHLANG‘ICH VA MAKTABGACHA TA‘LIM SIFATI VA
SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI:
INNOVATSIYA, RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XALQARO
TAJRIBALAR”**

RESPUBLIKA ILMYIY-AMALYIY ANJUMANIMATERIALLARI

2022-yil, 13-14 may

BUXORO- 2022

egallik, kelishik qo'shimchalari haqidagi ma'lumotlar o'quvchilarning orfografik savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Nutq jarayonida tovush tushish, tovush, orttirilish hamda tovush almashinish hodisalari yuzasidan berilgan mashqlar, kelishik qo'shimchalarini o'z o'rnida qo'llashga oid mashqlar bunga misol bo'la oladi:

Nuqtalar o'rniga mos kelishik qo'shimchasini qo'yib ko'chiring. Anvar bola chog'idan gulzor.. (-ning, -ni) yaxshi ko'rardi. Maxdum.. (-ni, -ning) oilasiga kelgach, bog'cha... (-ni, -ning) gulzor qismiga o'zi qaray boshladi. Gulzor.. (-ning, -ni) sug'orish, o'tlar...(-ning, -ni) yulish vazifalari.. (-ning, -ni) o'zi bajardi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir ta'lim yo'nalishi o'quvchilarni mustaqil fikrlovchi, egallagan bilimlarini amalda to'g'ri qo'llay oladigan har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan. Mana shu yo'lda og'ishmay harakat qilish ta'lim beruvchilarning pirovard maqsadi bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.Hamrayev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva. Ona tili (darslik) Iqtisodiyot-Moliya, Toshkent, 2007-yil.
2. R. Ikromova, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, D. Shodmonqulova. Ona tili 4-sinf, O'qituvchi, Toshkent, 2017-yil
3. S. Fuzailov, M. Xudoyberganova, SH. Yo'ldosheva. Ona tili 3-sinf, O'qituvchi, Toshkent, 2016-yil

“ZARBULMASAL”– NASRIY HIKOYACHILIK ASOSIGA QURILGAN BADIA

BuxDU katta o'qituvchisi S.A.Qodirova

Annatsiya: Ushbu maqolada Gulxaniy ijodiga mansub bo'lgan “Zarbulmasal” asarining tarixi va o'tmishimiz ya'ni o'sha davrning muammolari masallar asosida ochib berilgan. Insonlar xarakteri hayvonlarga majoziy tarzda ko'chirilib, ular o'rtasidagi munosabat asosida o'sha davrning muhiti yaqqol ko'rinadi. Asarning mazmuni, g'oyaviy yo'nalishi, bosh syujet yo'li, tarkibi, tili, uslubiy xususiyatlari haqida ma'lum tasavvur hosil qilinadi.

Kalit so'zlar: asar, sujet, mazmun, fikr, xarakter, qahramon, moziy, dialog

Abstract: In this article the author tried to explain the history of the great written work “Zarbulmasal” by Gulkhaniy and also gave facts about how Gulkhaniy described and revealed the life problems of that period-the period of our past with the help of parables. The characters and manners of people were metaphorically transferred to animals and on the basis of the relationship between people the atmosphere of that time was obviously shown and revealed. The readers of this book can get certain information about the content of the written work, its ideological tendency, the way of the main plot, the composition, the language, the stylistic distinction of it and the work can give an unforgettable impression on people.

Key words: work(written work), plot(subject), content(meaning), idea, character(manner), hero, moral story, dialogue

Аннотация: В этой статье рассказывается об истории произведения Гульхани «Зарбулмасал» и проблемах нашего прошлого, то есть того времени, основанных на притчах. Нрав человека аллегорически переносится на животных, и, исходя из отношений между ними, и хорошо видна среда того времени. Формируется определенное представление о содержании, идеологическом направлении произведения, основном сюжете, композиции, языке, методологических особенностях.

Ключевые слова: произведение, сюжет, содержание, идея, характер, герой, история, диалог.

Janr xususiyatining murakkabligi, ya'ni uni na hikoya, na qissa, na masal, na hajviya deb alohida olingan biror adabiy janr qolipiga sig'dirib bo'lmashligining o'zi Zarbulmasalning originallik belgisidir. Asarda bu janr turlarining har biriga xos xususiyatlar, ifoda yo'llari (nasr, nazm, saj) aralashgan, qorishgan holda tiniq bir umumiy ohang yaratadi.

Adabiyot nazariyasiga oid ishlarda “Zarbulmasal”ni “hajviy va yumoristik qissa” deb ta'rifladilar.¹ Bizningcha, qissaning bu belgilari oldidan “majoziy” sifatini qo'shish kerak. Zarbulmasal – maqsadni majoz yo'li bilan ifodalashga qaratilgan hikoyatdir. Majoz bo'lganda ham, oddiy majoz emas, ko'p qavatli murakkab majoz bor bunda. Odam timsoli o'rnida qushlarning harakatda bo'lishi birinchi majoz bo'lsa, ular tilidan Xolvoqi Misgar, Yodgor po'stindo'z singari kishilarning, Tuya, Chayon, Sangpo'sht (Toshbaqa) singari hayvon-hasharot timsollarining har xil naql-rivoyatlar keltirib so'z yuritishi – ikkinchi majoz, bu timsollar

¹ Asrorov A.A. O'zbek va tojik hajviyotida janriy shakllar rang-barangligi (XVIII asr oxiri - XIX asr). Nomzodlik diss. avtoreferati, Samarqand, 1993, - B.16

nutqida keltirilgan ifodalarning ko'chma ma'nolari – yana bir majoz – majoz ichidagi majozdir.

“Zarbulmasal”ning g'oyaviy mazmuni. Kichik hajmli bu asarning mazmuni shu qadar keng ko'lamliki, unga nisbatan “mazkur asarning g'oyaviy mazmuni nimadan iborat?” deb umumiy tarzda savol qo'yishning imkoni yo'qday. Asarning mohiyatini anglab yetmagan kishi matnning ayrim o'rinlarini tushunmay qolishi, to'g'ri yozilgan so'z yoki jumlagacha shubha bilan yondoshish mumkin. Asarda mashhur Movarounnahr – Buxoroda Amiral – mo'minin Sayid Muhammad Umarxon buzgan yurtlar nomi sanab o'tiladi. Adibning muddaosini tushunmaslik natijasida “buzgan” so'zi bosma nusxalarga “tuzgan”, “turgan” qilib “tuzatib” olingan va u asar matnida keyingi yillargacha saqlanib kelgan. Asarning mazmunidan xabardor bo'lgan kishi “buzgan”ni to'g'ri topmasa, “tuzgan”, “turgan”ni ham maqbul ko'rmagan bo'lar edi.

Zarbulmasalning bosh g'oyasini adabiyotshunoslarimiz “Yolg'iz Farg'ona viloyatidagina emas, umuman Movarounnahrda vayronagarchilikning hukmronligini ko'rsatish va uni fosh etish”dan iborat deb uqtirib keldilar.²

Gulxaniy bu asarni yozishga kirishgan paytda Qo'qon xonligini uzoq vaqt qiynab kelgan bir siyosiy jumboq – O'ratepa masalasi endigina o'z yechimini topgan, Qo'qondagi hukmdor toifalar O'ratepani o'ziga qarab olib o'zlarini g'olib hisoblab, Qo'qon xonligini Buxoro amirligidan ustun ko'rayotgan yillar edi.

Buxoro bilan Qo'qon xonliklari orasida bir tomoni Xo'jand, ikkinchi tomoni Jizzaxgacha tutashgan O'ratepa bekligi mavjud bo'lib, bu beklilik, tarixiy an'analarga ko'ra, mustaqil davlat huquqi uchun kurashib kelar, xonlar esa strategik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan bu viloyatni bo'sundirish uchun tinimsiz kurash olib boradilar. O'ratepa bekligi mustaqillikni bir muncha vaqt saqlab qolishga erishgan bo'lsa ham, ko'proq Buxoro izmida qolishga izmida qolishga majbur edi. Qoqon xonligi markazlashib olganidan keyin Olimxon va Umarxonlar davrida O'ratepani bo'sundirish uchun kurash boshlanadi. XIX asrning birinchi choragi davomida Qo'qon xonlarining O'ratepa uchun Buxoroga qarshi 20 martadan ortiq yurish qilgani tarixdan ayon. O'ratepa qo'rg'oni Amir Umarxonning 1817 yilgi yurishlaridan birida ishg'ol qilindi. Biroq undan keyin ham bu yerda osoyishtalik yuzaga kelmadi. Zarbulmasalda Qoqon–O'ratepa Buxoro munosabatlariga doir ana shu tarixiy holat-siyosiy inqirozlar davri o'z ifodasini topgan. “Movarounnahr–Buxoroda Amiral mo'minin Sayyid Muhammad Umarxon buzgan ...Rabot, Pushog'ar, Zomin, Bekobod, Xayrobod...” deb sanaganda adib O'ratepa bekligini nazarda tutib gap qilgan edi.

O'zaro urushlar tufayli har ikki xonlikdagi ahvol bir-biridan og'ir ekanini yaxshi ko'rib turgan chog'ida ham adibimizning o'z xonligi yutuqlaridan, ayniqsa, uning hududi kengayganidan faxrlanmay qolishi mumkin emas edi. Shuning uchun ham asarda obrazlar tilidan Umarxon davrida mamlakat obod bo'ldi, yangi shahar andozasida yurtlar bino bo'ldi, bu yerdan boyqushbop vayronalar topilmaydi deb mubolag'a qilinadi. Buxoro haqida esa aksincha holni ko'ramiz. Ko'rqush tilidan hikoya qilinishicha, Buxoro amirligiga qarashli yurtlar (O'ratepa atrofi) Umarxonning bir yurishi bilan vayronaga aylanib ketgan. Agar Boyo'g'li rozi bo'lsa, qizining qalini uchun tilagan ming chordevorni Buxoro hududidan sanab berishi mumkin. Buxoroning bir tumanidan chordevor – “Chordevor (to'rt devor)” emas, “Hashtdevor (sakkiz devor)” desa ham topiladi. Ish oxirida ana shu yo'l bilan hal qilinadi ham. Boyo'g'li vakilning roziligi bilankuyov tomon qizning qalini deb Urgutdan boshlab Yangiqo'rg'on, Rabot, Pushog'ar, Eski Sabot, Mo'g'ul, Chakan, Firuz, Nishopur, Shahrison, Beshsaroy, Dehliyon, Itarchi, Mujun, Mang'it, Kenagas, Yangiariq, G'onchi, G'azondarak, Xrak, Xoja Tohir, Yaxoja Tohir, Yaxdon, Qizili, Kurkat, Bekobod, Xayrobodgacha bo'lgan vayrona yurtlarni solib beradi.

Yig'inda o'tirgan qushlarning hammasi Yapaloqqush vakilining mardligiga qoyil qolib turgan bir paytda qiz tomonning vakili Xayrobodga nisbatan e'tiroz bildirib qoladi. Sababi – “daryoga yovuq(yaqin)dir, Boyo'g'li xalqi suvdin e'tiroz etar, muni o'rnig'a Mug'ni soling”, deydi. “Mug”dan bu yerda O'ratepa ichidagi qal'a - Mug'tepa, ya'ni O'ratepaning o'zi ko'zda tutilyapti. “Xayrobodning o'rniga Mug'ni soling!” deyish bilan “Xayrobodning o'rniga O'ratepani bering!” demoqchi. Ayni o'sha tarixiy – siyosiy vaziyat nuqtai nazaridan qaraganda, bu gapda qanchalik tagdor mazmun borligini tushunish qiyin emas. Ushbu talab oldida kuyov vakili Ko'rqush: “Shoshmang, Mug' egasini mug' atvorlig'i bor, ya'ni berish yo'lini yo'qotibdir, mumsiklar af'oli ang'a maqbul va marg'ub tushubdir, mug'luq bo'lurg'a oz qolibdur, yana bir safarlik holi bor, kech kuzgacha ani ham solib bermoqg'a man kafil”, deb ishontiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asrorov A.A. O'zbek va tojik hajviyotida janriy shakllar rang-barangligi (XVIII asr oxiri - XIX asr). Nomzodlik diss. avtoreferati, Samarqand, 1993, - B.16
2. V.Zohidov. O'zbek adabiyoti tarixidan –T.:1961. –B.204
- 3 Kodirova S. A. IDEOLOGICAL AND ARTISTIC FEATURES OF «ZARBULMASAL» //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 10. – C. 318-320.

² V.Zohidov. O'zbek adabiyoti tarixidan –T.:1961. –B.204

4. Abdurakhimovna K. S. Idealistic Study of Proverbs //International Journal on Integrated Education. – Т. 3. – №. 11. – С. 201-202.
5. Kodirova S. A. IDEALISTIC STUDY OF PROVERBS IN “ZARBULMASAL” OF GULKHANI //Scientific reports of Bukhara State University. – 2021. – Т. 5. – №. 1. – С. 170-179.
6. Кодирова С. А. ЖАНРОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ "ЗАРБУЛМАСАЛА" //СОВРЕМЕННАЯ НАУКА: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ. – 2021. – С. 97-99.
7. Abdurakhimovna K. S., Dilchiroy A. ANCIENT PROVERBS. – 2021. 1036-1040
8. Poetics of Proverbs KS Abdurakhimovna EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION 2 (2), 303-307
9. Main Subject way of "Zarbulmasal" KS Abdurakhimovna EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION 2 (2), 286-290

**BADIIY ASAR VA MATN ASOSIDA
BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA MANTIQUIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH
YO‘LLARI**

**BuxDUPI dotsenti Saidova Rayxonoy
Shofirkon tuman 53-umumta‘lim maktabi boshlang‘ich
sinf o‘qituvchisi, BuxDUPI 1-bosqich magistri
Zokirova Dildora Bahron qizi**

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlashni badiiy asar orqali rivojlantirishga bag‘ishlanadi. Bundan tashqari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilar fikrlash doirasining o‘ziga xosligi, mantiqiy fikrlash tushunchasining tavsifi, boshlang‘ich sinflarda mantiqiy fikrlashni shakllantirishga qaratilgan bir necha omillari haqida ma‘lumot beriladi. Shuningdek, mazkur jarayonni amalga oshirishda qo‘llaniladigan metodlar, topshiriqlar tizimi, vazifalarning ahamiyati borasida fikrlar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: mantiqiy fikrlash, boshlang‘ich ta‘lim, maxsus topshiriq, pedagogika, psixologiya, metodlar, badiiy asar, badiiy matn.

Аннотация: Статья посвящена развитию логического мышления у младших школьников через систему специальных заданий. Кроме того, дается информация о специфике сферы мышления младших школьников, описывается понятие логического мышления, несколько факторов, направленных на формирование логического мышления в начальной школе. Также обсуждаются методы, используемые в процессе, система задач и важность задач.

Ключевые слова: логическое мышление, начальное образование, специальное задание, педагогика, психология, методика.

Annotation: The article is devoted to the development of logical thinking in junior schoolchildren through a system of special tasks. In addition, information is given about the specifics of the sphere of thinking of junior schoolchildren, the concept of logical thinking; several factors aimed at the formation of logical thinking in primary school are described. The methods used in the process, the system of tasks, and the importance of the tasks are discussed.

Keywords: logical thinking, primary education, special assignment, pedagogy, psychology, methods.

Boshlang‘ich sinflarda to‘g‘ri, tez, ongli va ifodali o‘qishga o‘rgatish vazifasi o‘quvchilarda asarni tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish bilan birga amalga oshiriladi. Ta‘lim tizimida olib borilayotgan islohotlar tizimning yangicha shakllanishiga zamin yaratildi. Xususan, boshlang‘ich ta‘lim tizimidagi o‘zgarishlar o‘quvchilarning bilim-salohiyati, harakatchanligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlashni shakllantirishga qaratilgan ishlar bugungi kunda samarali natijalar bermoqda. Bundan tashqari, mantiqiy fikrlashni aynan quyi sinf o‘quvchilarida shakllantirish borasidagi chora-tadbirlar bugunning eng dolzarb masalasiga aylangan. Shuning uchun, mantiqiy fikrlash tushunchasiga batafsil to‘xtalamiz.

"Mantiqiy fikrlash" – bu sabablarini ta‘kidlab mavjud ma‘lumotlarni qayta ishlash. Inson allaqachon mavjud bo‘lgan bilimlarni ma‘lum bir ketma-ketlikda qayta ishlash orqali foydalanadi. Ushbu fikrlash natijasida ma‘lum bir vazifa uchun eng to‘g‘ri yechimini topadi. Mantiqiy fikrlash bu vaqt imkoniyati yo‘q bo‘lganda muammoni tezda hal qilish yo‘lini belgilab berauvchi qobiliyat. Bolalarda mantiqiy fikrlashning rivojlanishi kattalardagi kabi jarayonni talab qiladi. O‘quvchilarni yangi bilimlar bilan tanishtirish uchun masalalardan keng foydalaniladi.

Boshlang‘ich sinflarda sodda va qisqa mazmunlimasallar mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning foydali vositasi bo‘lib xizmat qiladi. O‘qish va ona tili darslari qiziqarli bo‘lishi bilan birga biroz murakkab, hayotda esa har jabhalarda kerak bo‘ladigan fan hisoblanadi. Asar o‘qish orqali o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini boyitadi. Hikoya, masal, she‘rning mazminini to‘g‘ri idrok etish, shuningdek, matnning hissiy

Xudoyberdiyeva Nodira O'ktamovna. FANTASTIK ROMANLARDA TARIXIY INVERSIYA	444
Икрамова А.А. ИНГЛИЗ АДАБИЁТИДА ШЕЪРИЙ ДРАМАНИНГ РИВОЖЛАНИШИ БОСҚИЧЛАРИ	447
Turdiyeva Nigora Saidovna. FASILITATSIYA VA FASILITATOR TUSHUNCHASI.....	448
Ne'matova Zarnigor Bahodirovna. BOSHLANG'ICH SINFLARDA "O'QISH KITOB" DARSLIKLARIDA QO'LLANGAN O'XSHATISHLAR USTIDA ISHLASH.....	451
Saydivaliyev Zarifa. BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA MATEMATIK KOMPETENSIYALAR.....	453
A.Mavlonov. BOSHLANG'ICH SINFLARDA "YOSH TABIATSHUNOS" TO'GARAGINI TASHKIL ETISHNING ILMIY-AMALIY AHAMIYATI.....	456
Qahhorova Abera Sharopovna. XALQ OG'ZAKI IJODI ORQALI O'QUVCHILARDA MA'NAVIY TARBIYANI SHAKKLANTIRISH.....	458
Avliyoqulova Nasiba Choriyevna. O'QISH DASLIKlardagi Badiiy Matnlarni Tahlil Qilishda Kreativ Yondashuv.....	459
N.B.Adizova. OILADA MILLIY TARBIYA JARAYONINING MAVJUD HOLATI.....	460
SH.I.Hoshimova. BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARINING TA'LIMY YUTUQLARINI BAHOLASH BO'YICHA XALQARO DASTUR (PISA) PIRLS DAN FOYDALANISH METODIKASI.....	462
N.B.Adizova, D.Husenova. BOSHLANG'ICH TA'LIMNI TEXNOLOGIK YONDOSHUV ASOSIDA AMALGA OSHIRISHDA QO'LLANILADIGAN METODLAR TIZIMI	464
N.T.Tosheva, Olimova lobar Akbar qizi. MATABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALAR O'YININING O'ZIGA XOS IJTIMOY-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI.....	465
Usmonova Umida Usmonovna. BOSHLANG'ICH SINFLARDA NUTQ O'STIRISH.....	467
Nurova Firuza Kamolovna. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SO'Z TURKUMLARINING O'RGANILISH TIZIMI.....	468
S.A.Qodirova. "ZARBULMASAL"– NASRIY HIKOYACHILIK ASOSIGA QURILGAN BADIA.....	470
Saidova Rayxonoy, Zokirova Dildora Bahron qizi .BADIY ASAR VA MATN ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARIDA MANTIQUIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	472
Abdullayeva Feruza Nurillayevna. ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA ILMIY OMMABOP MAQOLALARNI O'RGATISH.....	474
Jurayeva Maxliyo Mirzoyena. BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA TA'LIMIY O'YINLARDAN FOYDALANISH.....	475
M.I.Muxammedova.MATEMATIKA DARSLARINI O'QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH.....	478
Amonov Ulug'murod, Jalolova Saltanat Jasur qizi. OYBEKNING BIOGRAFIK ASARI YUZASIDAN MULOHAZALAR.....	480
Sayfullayev G'ulom Mahmudovich, Sattorova Dilfuza Bahodir qizi BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARINING TAYANCH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH.....	481
Ochilova Dilafro'z Rashidovna. BOSHLANG'ICH TA'LIM ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	482
U.S.Amonov, Z. J. Murtazoyeva. HADISLARDA KOMIL INSONNI TARBIYALASH MUAMMOLARI IFODASI.....	484
Кушназарова Юлдузхон Кулназаровна. УСЛОВИЯ УСПЕШНОГО ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БАКАЛАВРА.....	486
Ҳ.Т.Боймуродов. МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ТАРБИЯ МАШҒУЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ФИЗИОЛОГИК АСОСЛАРИ.....	489
Artikbaeva Zamira Allayarovna. BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA KURSIDA «TENG» VA «KICHIK» MUNOSABATLARI. QO'SHISH VA AYIRISH QONUNLARI.....	492
Уразова Зулфия. РАЗНЫЕ ПОДХОДЫ К ФОРМИРОВАНИЮ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БАКАЛАВРА (ПРОФИЛЬ «НАЧАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ»).....	494
Холматова Зулфия Топиболдиевана. БОШЛАНҒИЧ SINFLARDA O'QUVCHILARIDA SHARQONA TARBIYANI SHAKLANTIRISHDA GENDERLI ENDAHUV	496
Shukurova Madina O'ktam qizi. BOLANING NUTQINI RIVOJLANTIRUVCHI O'YINLAR.....	499
N.T.Tosheva, N.Z.Qodirova. BOLALAR O'YINIGA TARBIYACHINING RAHBARLIK QILISHI	501